

YANG O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

CONFERENCES.UZ


2023

DAVRIYLIGI:
2018-2023

DUNYODA BIRINCHI KASHF
ETILGAN LOKOMOTIV POYEZD



George Stephenson.



TOSHKENT SHAHAR, AMIR
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



IYUL
№54

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
10-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-10**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-10**

ТОШКЕНТ-2023



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 54-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 июль 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 20 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҶАЛАРИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР**

1. Samaraxonova Ma'suma МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA O'YIN VA MASHG'ULOTLAR, ULARGA QO'YILADIGAN TALABLAR.....	7
2. Kalbaeva Sarvinoz BOLALAR XAYOTIDA O'YINLARNING ROLI	9
3. Rakhmanova Victoria THE USE OF CRITICAL THINKING TECHNIQUES IN SPEAKING LESSONS	11
4. Yulchiyeva Umida Muradullayevna KO'PLIK SHAKLIDA YASHIRINGAN MA'NOLAR XUSUSIDA.....	13
5. Ergashev Omonboy Turgunboyevich TALABALAR BADIY TAFAKKURINI TAKOMILLASHTIRISHDA MADANIY TADBIRLAR DRAMATURGIYASI.....	15
6. Xalillayev O'ktam Sobir o'g'li GANDBOLCHILARNI TAYYORLASHDA JISMONIY, TEXNIK TAKTIK TAYYORGARLIK TURLARINING MAZMUNI.....	17



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҶАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA O‘YIN VA MASHG‘ULOTLAR, ULARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR.

Samaraxonova Ma`suma,
Kosonsoy tuman 41-MTT tarbiyachisi.

Annotatsiya: maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarga o’yinning turlari va foydali xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha, o’yinlar, bola, malaka, tabiat, ta’limiy o’yinlar.

Kichkintoy uchun ta’lim shakllaridan bin bu ta’limiy o’yindir. Ta’limning o’yin shakli ilk yosh davrida asosiy usul hisoblanadi. Kundalik hayot jarayonida, kundalik tartib daqiqalarida (yuvinish, kiyinish, ovqatlanish va hokazolarda), shuningdek, sayrda, o’yinlarda bola bilan muloqotda bo’lish natijasida ularni ko’p narsalarga o’rgatish mumkin.

Ammo tarbiyachi tomonidan maxsus tashkil etilgan ta’limiy o’yin va mashg’ulotlar ta’limning faol shakllaridan biri bo’lib hisoblanadi. Tarbiyachi mashg’ulotning bu shakli orqali bolalarning idrokini rivojlantiradi, ular yoshiga mos bo’lgan ma’lumotlarni beradi, ayrim muhim sifatlarni va malakalarni shakllantiradi.

Mashg’ulotning tashkiliy xarakteri ular uchun kundalik tartib daqiqalarida maxsus ajratilgan vaqt tarbiyachiga mashg’ulot mazmunini oldindan o’ylab qo’yishga, bolalar o’yinini tanlashga, hamma bolalarga ta’sir etishga imkoniyat beradi.

Agar tarbiyachi ta’limiy o’yin mashg’ulotlarini tashkil etish jarayonida qanday vazifalar hal etilishini aniq tasavur etsa, u vaqtda o’yindan yaxshi natijalarni kutish mumkin. Ta’limiy o’yin mashg’ulotlari bolalarning aqliy tarbiyasi uchun muhim bo’lgan jarayondir. Mashg’ulot vaqtida bolalarning aqliy rivojlanishi uchun zarur bo’lgan sifatlari, ya’ni diqqatini bir joyga to’plash malakasi hosil bo’ladi, ko’rsatilgan harakatlarni, aytilgan so’zlarni takrorlash istagi vujudga keladi.

Tarbiyachi bolalar diqqatini tortish, qiziqishini uyg’otish orqali aqliy rivojlanishning asosiy sifatlariidan biri bo’lgan qiziquvchanlik faoliyatiga asos soladi. Qiziquvchanlik tufayli kichkintoy mashg’ulotga jon-dili bilan qatnashadi, uni sabrsizlik bilan kutadi, undan xursand bo’ladi. Kattalarni tinglashga, ko’rsatilayotgan predmetga diqqat bilan qarashga o’rgangan bola ma’lum bir bilim hajmiga ega bo’ladi. U turli narsa-buyumlar haqida ko’p ma’lumotlarni, ya’ni ularning nima uchun mo’ljallanganligini, tashqi ko’rinishini, xususiyatlarini, shaklini, ranging katta-kichikligini, hajmini, og’irligini, materialning sifatini va hokazolarni bilib oladi. Uning idroki rivojlanadi va takomillashadi.

Ta’limiy o’yin mashg’ulotlari orqali bolalar o’z atroflaridagi predmetlar, hodisalar haqidagi ma’lumotlarni yaxshi o’zlashtirib oladilar.

Shuningdek, ta’limiy o’yin mashg’ulotlari bolalarni axloqiy tomondan tarbiyalashda ma’lum bir ahamiyatga ega. Ularda sekin- astalik bilan tengdoshlari o’rtasida faoliyat ko’rsatish, ta’sir o’tkazish malakalari hosil bo’lib boradi. Avval boshqa bolalarning yonida ularga xalaqit bermasdan, o’yinchoqlarini tortib olmasdan, o’zi ham boshqa narsalarga chalg’imasdan nimadir qilishni o’rganadi. So’ngra boshqa bolalar bilan birgalikda (hamkorlikda) faoliyat ko’rsatishga o’rganadi: o’yinchoqlarni, suratlarni, hayvonlarni birga ko’radilar, birgalikda raqsga tushadilar, yura- dilar va hokazo.

Shuni yaxshi esda tutish kerakki, mashg’ulotlar bolalarda yaxshi kayfiyatni vujudga keltirishi lozim. Bolalarda mashg’ulot vaqtida vujudga kelgan yaxshi kayfiyat, quvnoqlik his-tuyg’ulari bolaning ilk yoshdagi davrida nutqning muvaffaqiyatli rivojlanishiga zamin bo’lib, kelgusida tarbiyachi uchun katta ahamiyat kasb etadi.

O’yin bola faoliyatining asosini tashkil etadigan ko’rinishlardan biridir. Bolalar kamolati yo’lida



ishlab chiqilayotgan turli o'yinlar nazariyasi ta'lim-tarbiya uchun ham naqadar qimmatlidir. Jufa qadim zamondan boshlab ko'plab olimlar, tadqiqotchilar, ma'daniyat tarixchilari o'zlarining olib borgan tadqiqot ishlarida o'yinning o'ziga xosligi, uning nafaqat alohida shaxs hayoti balki jamiyat hayotida turgan o'rni va ahamiyati haqida fikrlar bildirganlar. Ular o'yinning qadrini uning shartlilikini, uning bolalar xulqini shakllantirishdagi o'rnini, muomala-munosabati chog'idagi bolaning hatti-harakatlarini aniqlab olishdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydilar. Shunday qilib o'yinni “bolalikning hamrohi” deb atash mumkin. O'yin ayniqsa maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmuni tashkil etadi, u mehnat va ta'lim bilan uzviy aloqada bo'lgan holda yetakchi faoliyati sifatida namoyon bo'ladi. Bola shug'ullanadigan ishlarning ko'pchiligi o'yin shaklida bo'ladi. O'yin chog'ida bolada mavjud barcha jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok qiladi, o'ylaydi uning holati xotirasi ko'chli ishlaydi, ta'sirchanlik va iroda sifatleri namoyon bo'ladi.

Ijodiy o'yinlar mazmunini bolalarning o'zlari o'ylab topadilar va o'z taasurotlarini, borliq haqidagi tushunchalarini hamda shu o'yinga bo'lgan munosabatlarni aks ettiradilar.

Qoidali o'yinlar esa kattalar tomonidan yaratiladi va bolalar hayotiga olib kiritiladi. Qoidali o'yinlar o'z mazmuniga qarab, bolalar yoshiga mo'ljallanganligiga qarab belgilanadi. Qoidali o'yinlarning ko'pchiligi xalq o'yinlari asosida tashkil etiladi. Bunday qoidali o'yinlarning ko'plari avloddan-avlodga tayyor holda o'tib bizgacha yetib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. T., 2018 y.
2. Xasanboeva O.U va boshqalar. «Maktabgacha ta'lim pedagogika». T., «Ilm ziyo» 2006.



BOLALAR XAYOTIDA O‘YINLARNING ROLI .

Kalbaeva Sarvinoz,
Kosonsoy tuman
41-MTT tarbiyachisi.
Tel: 91- 353-62-81

Annotatsiya: maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarga o‘yinning turlari va foydali xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha, didaktik o‘yinlar, bolalar mehnati, tabiat, predmetli o‘yinlar.

O‘yin. Tabiatning oddiy hodisa va tasavvurlarini kengaytirish maqsadida o‘tkaziladigan kuzatishlar bilan bir qatorda xilma-xil o‘yinlardan keng foydalaniladi. Bu o‘yinlarda bolalar sezuvchanlik tajribasini orttiradilar, egallagan bilimlarini ijodiy o‘zlashtiradilar. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda didaktik, harakatli va ijodiy o‘yinlardan foydalaniladi.

Didaktik o‘yinlar. Didaktik o‘yinlarda bolalar o‘zlarida tabiatdagi narsa va hodisalar, xayvonlar va o‘simliklar haqida mavjud bo‘lgan bilimlarni aniqlaydilar, mustahkamlaydilar, kengaytiradilar. Ko‘pgina o‘yinlar bolalarni umumlashtirish hamda turkumlashga o‘rgatadi.

Didaktik o‘yinlar xotira, diqqat, kuzatuvchanlikning o‘shishiga yordam beradi, yangi sharoitlarda bolalarni mavjud bilimlaridan foydalanishga o‘rgatadi, turli aqliy jarayonlarni faollashtiradi, lug‘atni boyitadi, bolalarda birgalikda o‘ynash ko‘nikmasini tarbiyalashga yordam beradi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda predmetli, stol-bosma va og‘zaki didaktik o‘yinlardan foydalaniladi.

Predmetli o‘yinlar — barglar, urug‘lar, gullar, mevalar, sabzavotlar bilan o‘ynaladigan «Ajoyib qopcha», «Mevalar va ildizlar», «Bu butoqda kimning bolakaylari» va shu kabi o‘yinlardir. Bu o‘yinlar yordamida bolalar faol muloqotda bo‘ladigan predmetlarning xususiyat hamda belgilari haqidagi tasavvurlari aniqlanib boyitiladi. Predmetli o‘yinlar, ayniqsa kichik va o‘rta yoshli guruhlarda keng qo‘llaniladi. Bu o‘yinlar bolalarga tabiat jismlarining o‘zidan foydalanish, ularni qiyoslash, hamda ularda sodir bo‘ladigan ayrim tashqi belgilaridagi o‘zgarishlarni qilish imkonini beradi. Predmetli o‘yinlar barcha yoshda guruhlarning biroz murakkablashtirilgan bilimlarini kengaytirish tafakkurlarini kuchaytirish hamda harakatlarini rivojlantirish o‘z ichiga oladi.

Stol-bosma o‘yinlari — «Yilning to‘rt fasli», «Kichkintoylar», «Mevalar», «O‘simliklar», «Barglarni terib ol», OKuft rasmlar va shu kabilardir. Bu o‘yinlar bolalarning o‘simliklar, xayvonlar jonsiz tabiat hodisalari haqidagi bilimlarini o‘zlashtirish, aytilayotgan so‘zga qarab predmetni tasvirlash ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi. O‘yin so‘z bilan birgalikda olib boriladi so‘z yoki rasm idrok etilishidan oldin keladi yoki o‘yin bilan uyg‘unlashib ketadi. Bunday o‘yinlar ozchilik bolalar bilan o‘tkaziladi.

Og‘zaki o‘yinlar («U nima uchun uchadi, yuguradi, sakraydi», «Suvda, havoda, yerda», «Kerak-kerak emas» va shu kabilar) hech qanday jihoz talab qilinmasligi tufayli juda maqbuldir. Ular u yoki bu predmetlarning vazifalari hamda harakatlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash, umumlashtirish va bir tizimga solish maqsadida o‘ynaladi. Bu o‘yinlar diqqatni, zehnni, qabul qilish tezligini, ravon nutqni rivojlantiradi.

Tabiatga oid o‘yinlarni o‘rganish barcha didaktik o‘yinlar uchun umumiy bo‘lgan qoidalar bo‘yicha amalga oshiriladi. Kichik yosh guruhlarda dastlabki bosqichlarda tarbiyachi o‘yinni bolalar bilan birga o‘ynaydi, o‘yin davomida u bir qoidani aytib, uni shu zahotiyiq tadbiq qiladi. Takroriy o‘yinda esa qo‘shimcha qoidalarni aytadi. Ikkinchi bosqichda tarbiyachi o‘yinda faol qatnashmaydi, chetdan rahbarlik qilib, o‘yinni boshqarib turadi. Uchinchi bosqichda bolalar mustaqil o‘ynaydilar.

O‘rta yosh guruhdan boshlab o‘yinga o‘rgatish usuli o‘zgaradi. Avval tarbiyachi o‘yinning mazmunini aytib, oldindan 1—2 ta muhim qoidani ajratib ko‘rsatadi. O‘yin davomida u bu qoidalarni yana bir bor ta’kidlaydi. O‘yin harakatlarini ko‘rsatadi, qo‘shimcha qoidalarni beradi. Keyingi bosqichda bolalar mustaqil o‘ynaydilar. Tarbiyachi o‘yinni kuzatib turadi, xatolarni to‘g‘rilaydi, nizolarni bartaraf qiladi. O‘yinga qiziqish susaygan vaqtda tarbiyachi o‘yinning boshqa turlarini taklif qiladi.

O‘yin mashqlari va o‘yin-mashg‘ulotlar. Aytib o‘tilgan o‘yinlardan tashqari bolalar bilan bo‘ladigan ish jarayonida ko‘pincha o‘yin mashqlaridan («Bargiga qarab daraxtni top», «Ta’midan



bilib ol», «Xuddi shunga o‘xshash gulni top», «Sariq bargni olib kel» va boshqalar) foydalaniladi. O‘yin mashqlari narsa va hodisalarni sifati hamda xususiyatiga ko‘ra farqlashga o‘rgatadi, kuzatuvchanlikni o‘stiradi.

Bu o‘yinlar butun guruh bolalari bilan yoki ularning bir qismi bilan o‘tkaziladi. O‘yin mashqlari kichik va o‘rta guruhlarda alohida ahamiyatga egadir.

Didaktik o‘yin-mashg‘ulotlar «Ajoyib qopcha», «Gul magazini» kabi o‘yinlarni o‘z ichiga oladi. Ular ma‘lum mazmunga ega bo‘lib, o‘yinmashg‘ulotlarga qiziqarlilik kiritadi. Bunda o‘qitish o‘yin qoidalari, harakatlari orqali bevosita olib boriladi. O‘yin-mashg‘ulotlardan kichik va o‘rta guruhlarda foydalaniladi, katta guruhlarda esa ular mashg‘ulotning bir qismini tashkil etadi.

Harakatli o‘yinlar. Tabiatshunoslik xarakteridagi harakatli o‘yinlar xayvonlarning hatti-harakati, ularning hayot tarziga taqlid qilish bilan bog‘liq bo‘lib, ba‘zilarida jonsiz tabiat hodisalarini aks ettiradi. Bu «Ona tovuq va jo‘jalar», «Mushuk va sichqonlar», «Kuyosh va yomg‘ir» va shu kabi o‘yinlardir.

Ijodiy o‘yinlar. O‘yinda bolalar mashg‘ulot, ekskursiya, kundalik hayot jarayonida olingan taassurotlarni aks ettiradilar (parrandachilik fabrikasi, issiqxona va shu kabildagi ishlar), ular haqidagi bilimlarni egallaydilar, bunda ularda mehnatga ijodiy munosabat shakllanib, kattalarning tabiatdagi mehnatlarining ahamiyatini anglab oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. T., 2018 y.
2. Ziyomuhamedov B. Ekologiya va ma‘naviyat. T.: «Mehnat» nashriyoti, 1997.



THE USE OF CRITICAL THINKING TECHNIQUES IN SPEAKING LESSONS

Rakhmanova Victoria
Teacher, Uzbekistan State
World Languages University

ABSTRACT

The article describes issues based on the use of critical thinking techniques in speaking lessons, especially the method of critical thinking, which makes it possible to implement the main directions of modernization of education: the active nature of education, the personal orientation of education, the demand for the results of education in life.

Keywords: modernization of education, critical thinking, concept, information, motivation.

The current stage of pedagogical practice is characterized by the transition from information and explanatory teaching techniques to activity-developing, which forms a wide range of personal qualities of the child. Among the activity-developing learning technologies, the technology of critical thinking is singled out as one of the most promising, a characteristic feature of which is the transfer of the educational process to the subject - the subjective basis, real individualization and differentiation of the educational process.

The learning process is a complex structure of interrelated elements. The activity approach makes it possible to consider the educational process as an integral system. In educational activity, meaningful, operational, motivational moments are distinguished, which correspond to certain knowledge, actions, motives.

It is known that David Cluster believes that, firstly, the development of critical thinking through reading and writing is always individual in nature, secondly, according to this technology, any information is the starting point, not the final destination, and thirdly, the work begins with the formulation questions and explanations of problems to be solved, fourthly, a critical thinker strives for “convincing argumentation”, and fifthly, critical thinking is “socially”. I agree with Cluster that all the necessary aspects of critical thinking are most clearly manifested in speech, written and oral.

In other words, it is necessary to develop creative thinking in students. In some pedagogical searches of recent years, special attention is paid to the special formation of thinking, the purposeful development of intellectual skills, in other words, teaching thinking skills, cognitive search processes. Today, in various scientific studies, one can find the definition of the term "critical thinking". Critical thinking is one of the types of human intellectual activity, which is characterized by a high level of perception, understanding, and objectivity of the approach to the information field surrounding it [2]. How can critical thinking be defined? Cluster offers five points defining this concept.

First, critical thinking is independent thinking. When the lesson is based on the principles of critical thinking, everyone formulates their ideas, assessments and beliefs independently of the others. No one can think critically for us, we do it solely for ourselves.

Secondly, information is the starting point, and by no means the final point of critical thinking. Knowledge creates motivation, without which a person cannot think critically. To generate a complex thought, you need to process a mountain of "raw materials" - facts, ideas, texts, theories, data, concepts. It is possible to think critically at any age: not only students, but even first-graders have accumulated enough life experience and knowledge for this. It is thanks to critical thinking that the traditional process of cognition acquires individuality and becomes meaningful, continuous and productive.

Third, critical thinking starts with asking questions and clarifying the problems that need to be solved. Human beings are curious by nature. We notice something new - and we want to know what it is. We see some attraction - and we already want to get inside.

Fourth, critical thinking seeks persuasive reasoning. A critical thinker finds his own solution to a problem and backs up that solution with reasonable, well-founded arguments. He is also aware that other solutions to the same problem are possible, and he tries to prove that the solution he has chosen is more logical and rational than the others.

The technology of critical thinking involves equal partnerships, both in terms of communication



and in terms of constructing knowledge that is born in the learning process. Working in the critical thinking technology mode, the teacher ceases to be the main source of information, and, using technology techniques, turns learning into a collaborative and interesting search. Therefore, teachers working in line with critical thinking pay great attention to developing the qualities necessary for a productive exchange of opinions: tolerance, the ability to listen to others, and responsibility for one's own point of view. Thus, teachers manage to bring the educational process much closer to real life, which takes place outside the walls of the classroom. Any pedagogical activity is ultimately aimed at building an ideal society, and in this sense, even one school class trained in the basics of critical thinking is a step towards achieving great goals [1]. The main idea of the technology for the development of critical thinking is to create such an atmosphere of learning in which students, together with the teacher, actively work, consciously reflect on the learning process, track, confirm, refute or expand knowledge, new ideas, feelings or opinions about the world around [1].

Thus, the use of critical thinking technology elements creates conditions for the creative self-realization of the individual, the development of cognitive abilities and communication skills of students, their moral potential.

References:

1. Butenko A.V., Khodos E.A. Critical thinking: method, theory, practice. Teaching method. allowance. - M.: Miros, 2002.
2. Genike E.A., Trifonova E.A. Development of critical thinking (Basic model). Book. 1. - M.: BONFI, 2002.



КО‘PLIK SHAKLIDA YASHIRINGAN MA’NOLAR XUSUSIDA

Yulchiyeva Umida Muradullayevna
Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
191-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
o‘zbek tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Bizning fikrimizcha, maqolada ko‘plik qo‘shimchasi qanday usullarda yasaladi va hozirgi kunda qaysilari faol ishlatiladi. Bu yasovchi -lar faqat ko‘plikdan tashqari yana qanday yashirin ma’nolarni berishi va chet tilidan o‘zlashgan ko‘plikdagi so‘zlarimizni biz qanday shaklda ishlatamiz birlikdami yo ko‘plikdami degan savollarga tilshunos olimlarning fikrlarini ko‘rib chiqqan holda o‘z qarashlarimizni berishga harakat qildik.

Kalit so‘zlar: og‘ayni, sevgi hurmati, tolib, ahvol, o‘zlashma so‘zlar, jamlik, ko‘plik, yashirin ma’nolar, fuqaro.

Annotation. As we think, in this article, the scientific views, the linguists’ opinions about great number and singular number. How derivated number, mastering words. This derivative -lar only great number meaning surveyed, we are explained, and how their unusage in is identified. This words are linguist scientists thought, myself give movement.

Key words: friendship, love respect, student, posterity, plural number, secret word, citizen.

Tilni ijtimoiy hodisa ekanligi ko‘pchilikka sir emas. Til ham biologik jihatdan jonsiz deb qaralsada, lekin u jonli organizmlardek o‘sadi, o‘zgaradi va yo‘qolishi mumkin. O‘zbek tilida ko‘plik va jamlik degan tushunchalar bor.

Ko‘plik yasali shaklini quydagicha ifodalash mumkin [1, 3-tom].

1. Morfologik ifodalanish: bolalar, aytingiz, aytdik, aytdilar.

2. Leksik ifodalanish: el, qo‘shin, poda.

3. Sintaksistik ifodalanish: baland-baland tog‘lar, dasta-dasta gul.

O‘zbek tilida ko‘plik qo‘shimchasi asosan “lar” orqali ya’ni birinchi usuldan ko‘p foydalaniladi. Bu uchala turdan sintaksistik ifodalanish qadimiyroqdir. “lar” asosan ot, kishilik olmoshlari va fe’llarga qo‘shiladi. Ko‘plik qo‘shimchasi “lar” shaxs, narsa, harakatni ko‘pligini bildirsada aniq miqdorni bildirmaydi. Masalan: gul- bitta gul, gullar- ko‘p gul miqdori biz uchun noaniqdir.

Chet tillarga nazar solganimizda ularning grammatikasida ko‘plik formasi qanday yasali shi va o‘zgarishini ko‘rishimiz mumkin. Biz hozir ko‘plik shakli qo‘shilganda o‘zakka tasir qilish holatlariga to‘xtalmoqchimiz. Ingliz va nemis tillarida esa o‘zakda o‘zgarish yuz beradigan holatlar bo‘lib. Masalan: nemis tilida: das Museum- die Museen; das Zentrum- xona, die Zentrenxonalar. Ingliz tilida: man- odam (erkak), men – odamlar; goose – g‘oz, geese – g‘ozlar; mouse – sichqon, mice – sichqonlar, foot – oyoq, feet – oyoqlar, tooth- tish, teeth- tishlar kabi. O‘zbek tilida ko‘plik yasalganda o‘zakka tasir qilmaydi [2, 76-bet]. Lekin o‘zbek tili shevalarida uchrab turadi. “Biz” olmoshiga qo‘shiluvchi -ar Toshkent shevasida -a formasida qo‘llanadi. – Bugun biza unikiga boramiz. -lar shevalararo ba’zan yo‘q darajada o‘zakka ta’sir etishi ham mumkin. “lar” qo‘shimchasi -n bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda bu -n tovushi -l ga aylanadi (yoki qo‘shimchani -l tovushi -n ga aylanadi). Nonlar – nolla (r), kunlar- kulla.

Rus tili va nemis tillarida son mosligi doim saqlangan bo‘ladi. Yani ega kesim mosligi mos kelishi kerak. Masalan: Птицы поют, Die Vögel singen, bu kabi ikkinchi so‘zlarini birlik formasida qo‘llab bo‘lmaydi. Biroq o‘zbek tilida fikriy materialni o‘zgartirmay turib, uni Qushlar sayradilar, Bolalarning kulgulari formasida ham, Qushlar sayradi, Bolalarning kulgusi formasida ham qo‘llab bo‘ladi. Bu so‘zlarni har ikki formada qo‘llasak-da, ko‘plik mazmuni anglashilaberadi. Bu shuni ko‘rsatadiki, u birikmalar har uch tilda mazmunan bir, biroq o‘zbek tilida ikkinchi misollarda ko‘plik ma’nosi shakllanmaydi, kontekstual anglashilgan. Bundan kelib chiqadiki, o‘zbek tilida ko‘plik ma’nosi doim o‘z ifodasiga ega bo‘lmaydi. Bu tilda uning formal ifodasi juda ham qat’iy emas, fikriy tomondangina asoslanishi kuchli. Yani biror so‘z (odatda kesim) orqali birlik ma’nosi ifodalansa, ko‘plik ko‘rinmasa, u forma faqat hurmat uchun qo‘llangan bo‘ladi – Buvimning bolalari ko‘p (hurmat+ko‘plik). Buvimning bolalari yo‘q...bitta (faqat hurmat).

Yana bunday hollatlarni ham ko‘rishimiz mumkin. Kesin son yo miqdor bildiruvchi so‘z bilan ifodalanganda, ega birlikda keladi. Masalan: uning bolasi uchta. Puli ko‘p deb, boy bolasin



xushlamang.

Biz bilamizki, “lar”ning hurmat, vaqtga nisbatan, taxmin, joy va shuning atroflari, ma’no kuchaytirish, umumlashtirish, ish-harakatning uzoq davom etishi yo takrorlanishi, kulgi, mazax, masxara (Birilari mo’ltoninamo, hiylagar; birilaridur gov sifatu, govda xar) yakka predmetni anglatish, belgi ma’nosini aniq ifodalash uchun (Tabiat go’zalliklarini tamosha qildim, bu ish ma’nosi bilan bog’lanib, takror, ko’plik ma’osini ham beradi.), yaqinlari ma’nosi, ish harakatni vaqti-vaqti bilan takrorlash (Quyoshlari yong’in boshlab shunday boqarki...), o’ziga o’xshashlar, kabi bundan tashqari -lar ning hurmatdan boshqa bir ko’rinishi borki, u sevgi hurmatidir. Bunda hurmat “-lar” ni sevgilining istalgan narsasiga qo’shish bilan ifodalanadi. Bu hurmat ma’nosidan boshqachadir. Ul ko’zlari suzugim, ulardan aylansin tilla uzugim (folklordan). Dutor chalib o’qigan xolalaridan ukajon, chiroylik (folklordan). Mavj uradur, mavj uradur yorginamning so’zlari (folklordan). Va yo kamzullaringda la’lidan tugmalaring bordur (Muqumiy). Daryoning ul yuzida uylaringiz oqarib ko’rinadi bo’ylaringiz (folklordan). Yana ko’plikni takidlash (ikki ko’plik). – Bizlar, sizlar, ko’p odamlar. “-lar”ning yana boshqa ma’nolar anglatishdagi xizmatini ko’rish uchun. Masalan: devorlari mustahkam, eshigi ham bor edi (G’. G’ulom). Bunda “devorlar” har taraftan bo’lganligidan, -lar olgandir; teks to’g’ri tutashgan bo’lganda “-lar” siz qo’llanar edi. Kishini hurmatlashda -lar hech vaqt uning o’z ismiga qo’shilmaydi. Bunday bir qiziq holatni ko’ramiz: ega so’zlovchiga nisbatan oldingi nasl (qarindoshlik bo’yicha) nomi bo’lganda, birlikda ham ko’plikda ham kelaoladi. (Dodam (dodamlar) aytdilar); keying nasl nomi bo’lsa, ko’plikda kelolmaydi (jiyan aytilar). Bu ko’plikni darajalanishini ko’satadi. (Kattaga ikki hurmat, kichikka bir hurmat).

Ayrim hollarda o’zbek tiliga o’zga tillardan kirib kelgan so’zlar borki, aslida ular ko’plikda turadi, lekin biz uni birlikda ishlatamiz yo unga ko’plik “lar” qo’shimchasini qo’shamiz. – Bori nozik panjalar oltin uzukdik zebinok. (Furqat). Bu misralarda “panja” (aslida forscha “panj – besh” so’zidan) olingan. U bu o’rinda o’z haqiqiy ma’nosidan chiqib, barmoq ma’nosida qo’llangandek ko’rinadi bizning fikrimizcha. Ko’plik ma’nosi shaxslarga qarab “lar” bilan “z” o’rni bilan qo’llanadi. Hurmat egasi III shaxs bilan ifodalansa “lar” bilan II shaxs bilan ifodalangan bo’lsa “z” bilan ifodalanadi. Har ikkisi ko’plik belgisi bo’lsa ham, o’rin bilan qo’llanishda farq qiladi. Buvimning ro’mollari boshlarida. – Buvi, ro’molingiz boshingizda. Ayrim o’zbekcha so’zlarimiz borki, ular birlashib yangi ma’no hosil qiladi. Ammo hosil bo’lgan so’z tarkibi ikkita so’zdan tarkib topgan bo’lsa ham unga ko’plik qo’shimchasini qo’shib ishlatamiz. Og’a va ini yani aka va uka. Ularni qo’shilishidan og’ayni- qarindosh urug’, yaqin do’st ma’nosida. Bundan biz “og’aynilar” shaklida ishlatamiz.

Bugungi o’zbek tilida, arabcha so’zlarning ishlatilishi umuman oz bo’lgandek, ko’plik formasida kirganlari ham juda oz qo’llanadi. Quyida aslan ko’plik bo’lib, o’zbek tilida birlik bo’lib o’qilgan (ba’zangina ko’plik ma’nosida qo’llangan) arabcha so’zlarni ko’rib o’tamiz. Olim- ulamo- olimlar. Nabiy- anbiyo- anbiyolar. Fan- funun- fanlar. Hol – ahvol- ahvollar. Faqir- fuqaro- fuqarolar. Fikr – afkor – fikrlar. Valad – avlod – avlodlar. Taraf – atrof – atroflar. Haq – huquq – huquqlar. Xalq – xaloyiq – xalqlar, xaloyiqlar. Hayvon – hayvonot – hayvonlar. Shayx – mashoyix – shayxlar, mashoyixlar. Uzv – a’zo – a’zolar. Tolib – talaba – talabalar.

Bundan kelib chiqqan holatda, ko’plik shakli nimaga muhim va boshqa tillardagi ko’plik shakllardan qanday xususiyati bilan ajralib turadi, unda ko’plikdan tashqari yana qanday yashirin ma’nolari mujassam degan savollarga yechim topishga va o’z qarashlarimizni berishga harakat qildik. Bu o’zbek tilidagi ko’plik qo’shimchasi faqat hurmat, taxmin, ko’plikdan tashqari boshqa ma’nolarni ham yetkazib berish xususiyatlariga ega. Bundan tashqari, o’zbek tilida ko’plik yasovchi qo’shimchalar qo’shilganda asosdan, lug’aviy va sintaktik shakl yasovchi qo’shimchalardan keyin kelib adabiy tilda asosga tasir qilmagan holda qo’shiladi. Chet tillarda ham asosdan keyin qo’shilishini ko’rishimiz mumkin. Ammo asosda ham o’zgarishlar kutiladi. O’zbek tilida esa faqat shevalarda kelganda asosda ayrim o’zgarishlar kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. A. G’ulomov. “O’zbek tilida ko’plik kategoriyasi” 3-tom. – Toshkent: 2007.
2. M.T. Irisqulov. “Tilshunoslikka kirish”. // Yangi avlod, – Toshkent: 2009.
3. O’zbek tili grammatikasi 1-tom, Morfologiyasi. // O’zbekiston fan nashriyoti, – Toshkent: 1975.



TALABALAR BADIY TAFAKKURINI TAKOMILLASHTIRISHDA MADANIY TADBIRLAR DRAMATURGIYASI

Ergashev Omonboy Turgunboyevich

Namangan davlat universiteti “Pedagogika nazariyasi va tarixi” kafedrası tayanch doktoranti,

E-mail: omonboy.ergashev@mail.ru

Telefon: +998933958099

Anotatsiya. Maqolada talaba yoshlarning badiiy tafakkurini takomillashtirish, ongini, dunyoqarashini, shaxsiyatini shakllantirishga xizmat qiladigan madaniy tadbirlarni tashkil etishda dramaturgiya qonuniyatlari asosida ssenariy yozish jarayonida nazariy ma'lumotlar, ko'rsatmalar bilan yoritilgan.

Kalit so'zlar: dramaturgiya, badiiy tafakkur, ssenariy, madaniy tadbirlar.

Istiqlol yillarida respublikamizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlarda san'at, madaniyatning o'zni tobora oshib bormoqda. Xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ma'naviyatini boyitish masalalari san'atning har bir turlarida o'z aksini topa boshladi.

San'at va madaniyat, xususan, teatrlashgan madaniy tadbirlarda ham milliylik, xalqchilik, ulug'vorlik, serqirralik va mazmundorlik sifatleri yuksalmoqda. Mamlakatimizda talaba yoshlarni tarbiyalashda teatrlashgan madaniy tadbirlarga alohida e'tibor berilmoqda. Bu holni xalq san'atining yangi bir yutug'i sifatida baholash lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev aytganidek – “Yangi O'zbekiston poydevorini yaratishda ilm-fan, ma'naviy va madaniy faoliyat, ta'lim-tarbiya sohalarini keng rivojlantirish va yangi bosqichga olib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi”[1; 34-b]. Shu bois bugunning dolzarb masalalaridan biri talaba yoshlarning badiiy tafakkurini takomillashtirish, ongini, dunyoqarashini, shaxsiyatini shakllantirishdir.

“Inson-san'at-inson” shaklidagi munosabatlar xam ta'lim muassasalarida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi, chunki san'at bor joyda yangilikka intilish, mehr-muxabbat, insoniylik tuyg'ulari hukm suradi[1; 16-b].

Yoshlarni tarbiyalashda davlatimiz tomonidan turli vazifalar belgilangan. Ana shulardan bittasi oliy ta'lim muassasalarida madaniy tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etish va iste'dodli yoshlarni qo'llab quvvatlash orqali talaba yoshlarni yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalashdir. Haqiqatan ham tarbiya vositalari ichida teatrlashtirilgan madaniy tadbirlar roli boshqa san'at turlariga qaraganda ancha kattadir.

Mamlakatimizda yangicha munosabatlarning taraqqiyoti, tadbirlar dramaturgiyasining turli usul va ko'rinishlari, tashkil etilayotgan madaniy tadbirlarning inson tafakkuriga ta'siri va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishdagi ahamiyatini tahlil etish maqsad qilib qo'yilsa, tadbirlar tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Madaniy tadbirlar dramaturgiyasining asosiy komponentlarini, tadbirda qo'llaniladigan ta'sirchan vositalar, hujjatlar va faktlar bilan ishlashning o'ziga xosligi, tadbirlarda qo'llaniladigan inssenirovkalar, obrazlilik, bir so'z bilan aytganda, madaniy tadbirlarni tashkil etishdagi birinchi qadam bo'lmish ssenariyning amaldagi ijrosi (sahnalashtirish, ijodiy va tashkiliy ishlar) masalalarini tahlil etish jarayonlaridagi muammolarni bal qilish orqali yondashuv tadbirning tarbiyaviy salmog'ini yanada oshiradi. Tarbiyaviy ahamiyatga ega manbalarni manashu, ya'ni uning dramaturgiyasini yaratish jarayonidan boshlab izlash, topish kerak, desak xato qilmagan bo'lamiz[2; 68-b].

Teatrlashtirilgan madaniy tadbirlarni tayyorlash-bu, eng avvalo, ijodiy jarayondir. U asosan, ikki qismdan tashkil topadi:

1. Dramaturgiya asarini (ssenariysini) yaratish.
2. Asarni sahnalashtirish (rejissurani amalga oshirish)[3; 5-b].

Teatrlashtirilgan ommaviy tadbirlar tayyorlash jarayoni haqida so'z yuritir ekanmiz, avval uning dramaturgiyasi (ssenariysi)ga diqqatni jalb qilamiz.

Tadbir va tomoshalar dramaturgiyasining asosini ssenariy tashkil etadi. Ssenariy (italyancha «Scenario» - adabiy-dramatik asar degan ma'noni anglatadi) tadbir mazmunini adabiy ta'svirlash bo'lib, bunda jiddiy ketma-ketlik asosida harakat elementlari bo'lmish mavzu va g'oya, bir



bo‘lakdan ikkinchisiga o‘tish, bloklar, bezaklar, matnlar to‘liq ko‘rsatiladi[4; 146-b]. Shuningdek, ssenariyda tadbir o‘tkaziladigan joy (sahna, maydon)ning bezatilishi, qatnashchilar so‘zlarining matnlari, badiiy va hujjatli materiallar, foydalaniladigan ta‘sirchan vositalar bayon qilinadi. Ssenariyning puxta bo‘lishi bo‘lajak tadbirning eng asosiy yutuqlaridan biridir.

Ssenariy dramaturgiyasi, ya‘ni uning kompozitsion qurilishi katta ahamiyatga egadir.

Teatrlashtirilgan madaniy tadbirlarning kompozitsion tuzilishi (strukturasi) muqaddima (kirish), tugun, asosiy harakat, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim kabi komponentlarni o‘z ichiga oladi[3; 9-b]. Sanab o‘tilgan bu barcha komponentlar dramaturgiya qonuniyatlari asosidir.

Oliy ta‘lim muassasalarida o‘tkaziladigan madaniy tadbirlarni tashkil etishda tashkilotchining birinchi galdagi vazifasi – shu tadbirga rejissyor topish va vazifani tushuntirishi kerak bo‘ladi. Chunki tadbirning rejissurasidagi eng qiyin jarayon tadbirni yagona mavzu chizig‘iga yo‘naltirishdir. Shu mavzuga mos manbalar izlash.

Madaniy tadbirlarni sahnalashtirish jarayonida tanlanadigan materiallarni quyidagi jihatlarga qarab tanlanishi maqsadga muvofiq:

- asar mavzusining dolzarbligi (ijtimoiy ahamiyati, zamon talablariga mos kelishi).

- asarning tarbiyaviy ahamiyati (har qanday ijodiy jarayonlar asosida tarbiyaviy masalalar yotishi zarur).

- asar qahramonlarining faol xatti-harakatlari (insonlarning har qanday to‘siqlarni yengib o‘tishlari va o‘z maqsadlariga erishishlarini badiiy vositalarda yetkazish)[2; 69-70-b].

Oliy ta‘lim muassasalarida madaniy tadbirlarni tayyorlash jarayoni bilan asosan ma’sul shaxslar bir o‘zi shug‘ullanadi. Bunday holatda u ham tadbir ssenariysini yozadi, ham uni sahnalashtiradi. Mana shunday yondashuv natijasida tadbirlarning g‘oyaviy jihatdan bir hil ko‘rinishi pirovardida tadbir saviyasiga salbiy ta‘sir etishi mumkin. Madaniy tadbir ssenariysini dramaturgiya qonuniyatlari asosida yoza oladigan adabiyot bilan shug‘ullanuvchi, bu ishda yaxshi malakaga ega bo‘lgan, ijodkor taklif qilish maqsadga muvofiqdir.

Ssenariy yozish bilan shug‘ullanmasin shaxs, u quyidagi layoqatlarga ega bo‘lmog‘i lozim:

- a) ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotni, mahalliy aholi mehnati va turmushni chuqur tushuna oladigan hamda uni to‘g‘ri tahlil qila oladigan shaxs bo‘lmog‘i;

- b) adabiyot va dramaturgiya sohasida fundamental bilimga ega bo‘lgan, ulardan samarali foydalana oladigan kishi bo‘lishi;

- v) hayotiy materiallarni, hujjatli faktlarni yig‘a oladigan, ularni adabiy-badiiy shaklda bayon qila biladigan ijodkor bo‘lmog‘i lozim[3; 6-b].

Umuman olganda madaniy tadbirlar dramaturgiyasi - ssenariyda xalqimizning milliy g‘oyasini hisobga olinishi shart. Shunday ekan yuqoridagi barcha talablar tadbir uchun tanlangan materiallarni badiylashtirish jarayonida, ya‘ni badiiy asarlarni qayta ishlab, sahnaga moslashtirishda dramaturgiya qonuniyatlarni e’tiborga olinmog‘i lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak yuqorida aytganimizdek san’atning asosini tarbiya tashkil etadi. Sahnadan turib aytilgan har so‘z tomoshabin uchun qonuniyatga aylanib qoladi, ya‘ni tomoshabin qahramonni gaplariga ishonadi, undan o‘ziga kerakli ma’naviy madad oladi. Shuning uchun sahnadan turib qilingan barcha xatti-harakatlar haqqoniy tarzda amalga oshirilishi kerak. Shundagina madaniy tadbirlar orqali talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirishda ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: О‘zbekiston, 2021. – Б. 34.

2. Б.С. Сайфуллаев, В.К. Рустамов. Маданий тadbirlарни ташкил этиш маҳорати. -Т.: «Фан ва технология», 2016,180 бет.

3. Жаҳонгир Маматқосимов. “ТЕАТРАШТИРИЛГАН ОММАВИЙ ТАДБИРЛАР” улубий қўлланма, ТОШКЕНТ – 2008, 63 бет.

4. Ф.Аҳмедов. “Оммавий байрамлар режиссураси асослари”. Т.: “Алоқачи”. 2008.



**GANDBOLCHILARNI TAYYORLASHDA JISMONIY, TEXNIK TAKTIK
TAYYORGARLIK TURLARINING MAZMUNI**

Xalillayev O‘ktam Sobir o‘g‘li
Urganch davlat universiteti Jismoniy
madaniyat fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada gandbolchilarning o‘yinda harakatlanish faoliyati hamda o‘yindagi texnik taktik jarayonlarning amalga oshirilishi, shuningdek, gandbolchilarning jismoniy sifatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Gandbol, o‘yin, guruh, to‘p, harakat, jismoniy, texnika, taktika, tayyorgarlik, ko‘nikma, malaka.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya sohasini rivojlanishiga qaratilgan qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan va jadallikda hayotga tatbiq etib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi, “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031-sonli “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori shular jumlasidandir. Ma‘lumki jismoniy tarbiya sport millat genofondini shakllantirish va sog‘lom barkamol avlodni tarbiyalash vositasi sifatida yildan yilga turli yosh avlodni kundalik turmush tarziga aylanib bormoqda. Bugungi kunda respublikamizning barcha hududlari-yu chekka-chekka qishloqlarida ham jismoniy tarbiya bilan bir qatorda sport turlari ham rivojlanib bormoqda. Ta‘kidlash joizki, yurtimiz bo‘ylab ommaviy sog‘lomlashtirish ishlarini jadallashtirishda sportning gandbol turi beqiyos ahamiyat kasb etadi.¹

Gandbol sport turi dunyo miqyosida eng ommaviylashgan sport turi hisoblanadi. Bugungi kunda respublikamizning ta‘lim muassasalarida gandbol sport turi fan va sog‘lamlashtirish vositasi sifatida o‘quv rejalarga kiritilgan. Gandbol o‘yinida harakat faoliyati turli vaziyatlarga mos bo‘lgan o‘zgaruvchan asosida amalga oshiriladi. Keskin qarama-qarshiliklar bilan bog‘liq bo‘lgan ushbu vaziyatlarda yuqori natijaga erishish gandbolchilardan shakllangan tezkorlik-kuch, chaqqonlik, chidamkorlik sifatlari bilan bir qatorda turg‘un aniq harakat qobiliyatini namoyish etish talab etiladi.

Sport o‘yinlarida texnik malakalarni aniq, tez va samarali ijro etish, taktik kombinatsiyalarni vaziyatga mos mo‘ljallangan maqsad sari amalga oshirish har bir sport o‘yini turining o‘ziga xos xususiyatiga mos jismoniy sifatlarni bilan chambarchas bog‘liqligi ilmiy asoslab berilgan. Tadqiqotlarda ayrim sport o‘yinlari (futbol, voleybol, gandbol) xususiyatiga mos jismoniy sifatlarni rivojlantirishga mo‘ljallangan ko‘pgina mashqlar majmualarini alohida-alohida guruhlashtirib qo‘llashni tavsiya etishgan. Jumladan, 1-guruh mashqlari o‘yin qoidalarini doirasida ijro etiladi. 2-guruh – o‘yin qoidalarini doirasidan tashqari vaziyatda, 3-guruh mashqlari yakuniy zarba yoki to‘p otish (gandbol, basketbol) bilan tugamaydi (shug‘ullanuvchilar faqat bir-biriga to‘p uzatishadi). 4-guruh – har bir shug‘ullanuvchi yakka holda o‘z mahoratini shakllantiruvchi mashqlarni bajaradi.

Qo‘l to‘pi o‘yini asosini yugurish, sakrash, to‘pni uzatish, olib qochish, uloqtirish kabi shug‘ullanuvchilarning har jihatdan uyg‘un rivojlanishiga yordam beradigan tabiiy harakatlar tashkil etadi. Yuklamalar organizmdagi barcha funksional tizimlarning rivojlanishiga ijobiy ta‘sir etadi. Mashg‘ulotlar ta‘sirida, shuningdek, musobaqalarda shug‘ullanuvchilarning ruhiy faoliyati takomillashadi, tezlik, chamalash, ijodiy fikr yuritish va tashabbuskorlik kabi sifatlari rivojlanadi. Qo‘l to‘pi o‘yini umumiy jismoniy tayyorgarlik uchun yaxshi vosita bo‘lib xizmat qila oladi. Yo‘nalishni o‘zgartirib xilma-xil yugurish, sakrashning turli xillari, maksimal tezlikda harakat qilish yo‘llari bilan jismoniy sifatlarni, ayni paytda irodaviy xislatlarni, taktik tafakkurni kamol toptirishi tufayli gandbol har qanday ixtisosdagi o‘quvchi uchun zarur bo‘lgan sport o‘yinlari qatoridan joy olgan.

O‘yin natijasini ahamiyatini, g‘alaba qilish zarurligini ha deb eslataverish ham hamisha yaxshi natija bermaydi. Har bir sportchi o‘yinchida irodaviy sifatlarni yuqori darajada rivojlangan

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031-sonli “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori



bo‘lishi lozim. Dadillik, qat’iyatlik, bosiqlik va esankiramaslik, tashabbuskorlik, intizomlilik asosiy irodaviy hislatlardir. Bu hislatlar o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida tarbiyalanadi.

Belgilangan vazifalarni bajarishga tayyorgarlik, gandbolchi organizmining imkoniyatlarini hamda undagi jismoniy tayyorgarlikning asosini tashkil etadi. Bunday imkoniyatlarning darajasi ularning tayanch muskul tizimining ishchanligida aniq namoyon bo‘ladi. Mashg‘ulotlar ta’sirida bo‘ladigan o‘zgarishlar mustahkam bo‘lishi uchun o‘yinchi uzoq vaqt davomida o‘ziga xos maxsus ishni bajarish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Gandbol o‘yinida to‘p bilan va to‘psiz usullar bajariladi. Qo‘yilgan maqsadga erishmoq uchun o‘yinda qo‘llaniladigan xilma-xil maxsus usullar yig‘indisi gandbol texnikasini tashkil etadi. Gandbol o‘yin texnikasi maydon o‘yinchisi va darvozabon texnikasiga ajratiladi. Har qaysi bo‘lim harakatlanish texnikasi va to‘pni boshqarish texnikasi bo‘limchalariga ajratiladi. Kichik bo‘limlar turli usullarda ijro etiladigan aniq texnik usullardan – harakatlanish texnikasi uslublari va usullaridan iborat. Bulardan maydon o‘yinchilari va darvozabon oydalanadi. Usul va turlarda harakatning asosiy mexanizmi umumiy bo‘lib, detallari bilangina farqlanadi. Har xil usulni ijro etish shartlari gandbol texnikasini yanada turli-tuman qiladi. Gandbol o‘yini texnikasi ikkita asosiy katta qisimga “hujum” va “himoya texnikasi”ga ajratish mumkin. Hujum texnikasida “harakat” va “to‘pga egalik qilish” usullari, himoya texnikasida esa “harakat” va “to‘pga qarshi egalik qilish” usullariga ajratiladi.

Jismoniy sifatlarni takomillashtirish jarayonida mashg‘ulotning juda muhim va murakkab qismi hisoblanadi. Raqib jamoasi ustidan g‘alaba qozonishda jismoniy texnik tayyorgarlik bilan bir qatorda o‘z imkoniyatlaridan to‘g‘ri va ustalik bilan foydalana bilish katta ahamiyatga egadir. Gandbolchilarning taktik ko‘nikmalarini takomillashtirishda o‘zlashtirilgan va o‘rganilgan mashqlarni ko‘p marta takrorlash taktikadagi ta’lim va mashg‘ulotning asosiy uslubi (metodi) hisoblanadi.¹

Gandbolda o‘yin taktikasi katta ahamiyatga ega. Ko‘p hollarda to‘g‘ri tanlangan taktika jamoalarni qarshi harakatlarida katta ustunlik yaratadi. Musobaqada gandbol jamoasi va uning har bir o‘yinchisi o‘yin jarayonida o‘z kuchlarini taqsimlashning muvofiq usullarini, o‘yin texnikasini mohirlik bilan qo‘lashi, jamoadagi sheriklar bilan hamkorlikda oqilona tarzda harakatlanishi hamda o‘yin vaziyatiga bog‘liq ravishda maqbul taktik kombinatsiyalarni qo‘lay olishi lozim. Taktikani muvofiqligi shundan iboratki, u jamoaning umumiy manfaati uchun alohida o‘yinchilarning individual xislatining loiqlicigicha qolish imkonini beradi. Tanlangan taktika raqib harakatlarini imkoni boricha ko‘proq cheklanishini nazarda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031-sonli “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. Sobirov O. A., Umarov K. M. Gandbol nazariyasi va uslubi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.

¹ Sobirov O. A., Umarov K. M. Gandbol nazariyasi va uslubi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. B. –23-24.



ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 10-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.07.2023

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000